

## O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY SAVODXONLIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 1-kurs talabasi  
Dilfuza Ismonova Muzaffar qizi*

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida aholining konstitutsiyaviy-huquqiy savodxonligi rivojlanishining asosiy bosqichlari tahlil qilingan. Konstitutsiya qabul qilinishi jarayoni, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan davlat siyosati, raqamli huquqiy platformalarning joriy etilishi hamda konstitutsiyaviy islohotlarning aholi huquqiy bilimlariga ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, maqolada huquqiy ta’lim tizimi va zamonaviy axborot texnologiyalarining huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati amaliy misollar orqali tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, davlat siyosati, Lex.uz, Advice.uz, konstitutsiyaviy islohotlar.

### **KIRISH.**

Huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida aholining huquqiy savodxonligi muhim o‘rin tutadi. Fuqarolarning o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat mustaqilligining huquqiy poydevori sifatida mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi nafaqat davlat boshqaruv tizimini shakllantirish, balki aholining huquqiy bilimlarini oshirish jarayonini ham yangi bosqichga olib chiqdi.

Konstitutsiyani qabul qilish jarayoni va uning huquqiy ahamiyatiga nazar solinsa O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi 1990-yil 20-iyunda tashkil etilgan Konstitutsiya komissiyasi tomonidan ishlab chiqila boshlangan. Loyihani tayyorlash jarayoniga huquqshunos olimlar, davlat boshqaruvi organlari mutaxassisleri hamda jamoatchilik vakillari jalb qilindi. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi bir necha oy davom etgan bo‘lib, muhokamalar jarayonida aholidan 6000 dan ortiq

taklif va mulohazalar kelib tushgan. Ushbu takliflar asosida loyihaga 80 dan ortiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan.

Bu holat aholining mamlakat taqdiri va davlatchilik masalalariga befarq bo'lmaganini, jamiyatda huquqiy ong shakllana boshlaganini ko'rsatadi. Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari, hokimiyatlar bo'linishi, xususiy mulk daxlsizligi, vijdon erkinligi kabi demokratik tamoyillar mustahkamlandi. Unda xalqaro huquq normalari va rivojlangan davlatlar konstitutsiyaviy tajribasidan samarali foydalanildi. Bu esa mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Konstitutsiya qabul qilinganidan keyin aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, akademik litsey va kollejlarda "Davlat va huquq asoslari" fanining joriy qilinishi yosh avlodning huquqiy bilimlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu jarayon natijasida aholi "shaxsiy huquq", "xususiy mulk", "vijdon erkinligi", "fuqarolik jamiyati" kabi tushunchalar bilan qonunchilik asosida tanisha boshladi. Masalan, ta'lim muassasalarida Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tadbirlar, huquqiy viktorinalar va ochiq muloqotlar tashkil etilishi yoshlarning huquqiy ongini oshirishga xizmat qildi.

2000-yilda mamlakatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan Milliy dastur qabul qilinishi mazkur sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu dastur doirasida huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, aholiga huquqiy axborotlarni yetkazish va huquqiy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. 2010-yilda ishga tushirilgan Lex.uz milliy qonunchilik bazasi aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy hujjatlardan erkin foydalanishi uchun muhim manbaga aylandi.

Mazkur platforma orqali Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari elektron shaklda e'lon qilinib kelinmoqda. Bu esa huquqiy axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2019-yilda Advice.uz huquqiy axborot portali ishga tushirildi. Portal orqali fuqarolar mehnat munosabatlari, oila huquqi, tadbirkorlik, uy-joy va ijtimoiy himoya kabi sohalar bo'yicha bepul huquqiy maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Masalan, fuqarolar mehnat shartnomasi tuzish yoki meros masalalari bo'yicha onlayn huquqiy tushuntirishlardan foydalanmoqda.

2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri bo'yicha umumxalq referendumini o'tkazildi. Yangi tahrirda inson qadrini ulug'lash, ijtimoiy davlat tamoyili, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda inson huquqlarini kafolatlashga qaratilgan qoidalar kengaytirib, 60 foizga yaqin qismi yangilandi.

Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida aholining siyosiy-huquqiy faolligi ortdi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik muhokamalari orqali fuqarolar konstitutsiyaviy jarayonlarda faol ishtirok etdilar. Bu esa mamlakatda huquqiy madaniyat va fuqarolik mas'uliyatining o'sib borayotganini ko'rsatib 2024-yilda huquq ustuvorligi indeksida yanada yuqori 78-o'ringa ko'tarilganligimiz bunga misol bo'ladi.

### **XULOSA.**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mustaqillik yillarida aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi, huquqiy ta'lim tizimining shakllantirilishi, raqamli huquqiy platformalarning joriy etilishi va konstitutsiyaviy islohotlar aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksalishiga xizmat qildi.

Ayniqsa, raqamli huquqiy axborot tizimlari fuqarolarning qonunchilikdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, huquqiy axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minladi. Kelgusida huquqiy ta'limni yanada takomillashtirish, aholining huquqiy axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim sharti bo'lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy madaniyatni yuksaltirishga oid farmon va qarorlari.
3. [Lex.uz](http://Lex.uz) milliy qonunchilik bazasi
4. [Advice.uz](http://Advice.uz) huquqiy axborot portali
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2020.